

IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARNI KASB HUNARGA  
YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

**Xolmurodova Nafisa Tolibjonovna**

*Osiyo Xalqaro Universiteti*

*Magistratura 1-kurs talabasi*

*Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarga kasb-hunar o'rgatishda maxsus maktablar va ixtisoslashtirilgan sanoat kasb-hunar kollejlari mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilari uchun ilmiy asoslangan pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilsa, respublikamizda aqli zaif bolalarni kasb-hunarga tayyorlash samaradorligi oshishi haqida ma'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *prezident fikri, qarori, tadqiqot obyekti, predmeti, yangiliklari, vazifalari, tadqiqotning yangiliklari, olegofreniya, aqli zaif bolalar.*

Respublikamiz mustaqillikka erishgach yurtimizdagi ko'p o'zgarishlar kabi ta'lim sohasida xam juda katta o'zgarishlar bo'ldi. Xususan nogiron bolalarga ta'lim tarbiya berish, ularni jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam berish lozimligi kabi masalalar atroflicha davlat siyosati darajasiga kutarildi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek “Respublikamizning bugungi va ertangi taqdiri yosh avlodning kasb mahorati, intellektual darajasi ma'naviy taraqqiyot etgan jismoniy sog'lomligiga bog'liq” Darhaqiqat yurtimizda sog'lom kishilar qatori nuqsonli insonlar ham jamiyatda ma'lum jabhada faoliyat ko'rsatib, o'z o'rnini topishga haqlidirlar. Shu o'rinda aqli zaif insonlarni kasb xunar egasi bo'lishi, jamiyat uchun foydali kasbga yo'naltirish xususida so'z yuritib o'tsam. Kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad yosh avlodni o'zi ma'qul ko'rgan kasbni ongli ravishda tanlashdan iborat bo'lib, bu jarayon shaxsning bo'g'usi kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida shakllanish jarayonini o'tadi, bozor iqtisodi munosabatlariga moslashib borishga ko'maklashadi. Kasbga yo'naltirishda yoshlarni erkin va mustaqil tanlashlarining amaliy tizimi sifatida qaralishi lozim.

Kasb tanlashda har bir shaxsning individual psixologik xususiyatlari, xalq xo'jaligi manfaatlari nuqtai nazaridan mehnat resurslarini to'laqonli ta'minlash zaruriyati kabi omillar hisobga olinmog'I lozim. Xozirgi kunda respublikamizda amalgam oshirilayotgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablaridan kelib chiqqan holda kasb hunarga yo'naltirish sohasida mavjud bo'lgan ilmiy xulosalar va tavsiyalarni ta'lim islohotlari bosh maqsadidan kelib chiqqan xolda yangilash zaruriyati yuzaga kelmoqda. Kasbga yo'naltirish bu yoshlarning qiziqishlari, layoqatlari, qobiliyatlari va jamiyatning turli xil kasblariga bo'lgan ehtiyojiga mos, ularni asoslangan kasb tanlashga yordam beradigan maqsadli faoliyatdir.

“Eng muhimi, shuni anglab yetishimiz kerakki, kadrlar masalasini xal etmas ekanmiz, say harakatlarimiz kutilgan natijalarni berishi, hayotimiz, ma’naviyatimiz o’zgarishi qiyin kechadi. Demakki, zamonaviy ta’lim –tarbiya tizimini isloh qilish, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yo’lga qo’yish faoliyatimizning bosh yo’nalishi bo’lmog’I darkor”.

“Ta’lim to’g’risida”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”, “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonunlari talablarini ta’minlash maqsadida respublikkada imkoniyatlari cheklangan bolalar va o’smirlash uchun qulay iaroitlar yaratish borasida hukumatimiz tomonidan katta ishlar amalga oshirilmog’da. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 17 maydagi “Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari faoliyati to’g’risidagi” 100-sonli qaroriga asosan imkoniyatlari cheklangan shaxslarga ehtiyojlarni qondirish uchun kasb-hunar ta’limini olishning qonuniy bazasi yaratildi. Ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kolleji O’zbekiston Respublikasining Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi, Iqtisodiyot vazirligi va Sog’liqni saqlash vazirliklarining qo’shma Qarori bilan tasdiqlangan “Mutaxassisliklar va kasblar ro’yxati”ga asosan imkoniyatlari cheklangan o’smir va yoshlarga kasb-hunarga ega bo’lishlarida teng huquqini ta’minlaydi. “Imkoniyati cheklangan ta’lim muassasalari bitiruvchilarini kasbga yo’naltirishni tashkil etish masalalari” metodik qo’llanmasi imkoniyatlari cheklangan o’smir va yoshlarni kasbiy tayyorgarligi jarayonida ishtirok etuvchi sub’ektlar – barcha maxsus maktablar va maktab-internatlar defektologlari, oligofrenopedagoglar, surdopedagoglar, tiflopedagoglar hamda, hududiy xalq ta’limi muassasalari faoliyatini metodik ta’minlash va tashkil etish bo’limi o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish va pedagogic-psixologik diagnostikasini metodik ta’minlash kichik guruhlari defektologlari, shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalar bilan shug’ullanuvchi barcha mutaxassislar, imkoniyati cheklangan farzandlari bo’lgan ot-onalar va keng jamoatchilik uchun mo’ljallangan. Tadqiqotning maqsadi: maxsus yordamga muhtoj, xususan, aqli zaif o’quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari va samarali tizimini ishlab chiqish. Tadqiqotning obyekti – maxsus maktablarning 4-9 sinf o’quvchilari.

Tadqiqotning predmeti – maxsus yordamga muhtoj o’quvchilarni kasbhunarga tayyorlash yo’llari, mazmuni, shakl va metodlari. Tadqiqotning vazifalari: 1) maxsus yordamga muhtoj o’quvchilarni: a) kasb-hunarga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslarini o’rganish; b) kasb-hunarga tayyorlash tizimini va amaliyotdagi mavjud ahvolni o’rganish va tahlil qilish; 2) maxsus maktablar mehnat ta’limi o’qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligi darajasini aniqlash; 3) maxsus yordamga muhtoj o’quvchilar uchun metodik kompleks ishlab chiqish va pedagogik tavsiyalar tayyorlash. Tadqiqotning ilmiy farazi: - maxsus yordamga muhtoj o’quvchilarni kasb-hunarga tayyorlash muammosi nazariy-metodologik asosga ega



bo'lsa; - ularni mehnat va kasb-hunarga yo'naltirishda o'quv fanlari mazmunining psixologik, pedagogik asoslari aniqlansa; - ular milliy kasb-hunarlariga ta'lim-tarbiya jarayonida o'rgatilsa va o'quvchilarni tarbiyalashda mehnat an'analari tajribalaridan samarali foydalanilsa; - maxsus ta'lim muassasalari mehnat ta'limi o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligi talab darajasida bo'lsa; - maxsus maktablar va ixtisoslashtirilgan sanoat kasb-hunar kollejlari mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilari uchun ilmiy asoslangan pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilsa, respublikamizda aqli zaif bolalarni kasb-hunarga tayyorlash samaradorligi oshadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi: 1. Maxsus maktablar, maktab-internatlaridagi aqli zaif o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlash ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berildi.

2. Maxsus yordamga muhtoj aqli zaif o'quvchilarning kasb-hunarni tanlashga bo'lgan qiziqishining yuzaga kelishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi.

3. Maxsus ta'lim muassasalarining mehnat ta'limi o'qituvchilari uchun aqli zaif o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashga doir, ta'limning uzviylikini ta'minlash borasida pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi va maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning samarali tizimi yaratildi. Tadqiqotning metodlari: - pedagogik tajriba-sinov; - savol-javob, suhbat, so'rovnoma, kuzatish; - natijalarni umumlashtirish. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati: Maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning ilmiy-nazariy jihatlari asoslandi, qiyosiy tahlil asosida bunday o'quvchilarning psixologik xususiyatlari aniqlandi hamda kasb-hunarga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari belgilandi.

Aqli zaif bolalarni – aqliy ijtimoiy rivojlanishida mehnatning roli Imkoniyati cheklangan shaxslar bo'lgan o'quvchilarni chuqurlashtirilgan ixtisosli, tabaqalashtirilgan o'qitish, intellectual rivojlantirishni ta'minlash va ularning jismoniy kamol topishi xususiyatlariga muvofiq tanlangan kasblar bo'yicha mutaxassislikni egallash soha mutaxassislarining maqsadi hisoblanadi. Imkoniyatlari cheklangan shaxslar mutaxassislik bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, ularning kasbiy-ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun shart –sharoitlar yaratish pedagog xodimlarning asosiy vazifasi. Shunday ekan davlat ta'lim standartlari doirasida umumta'lim va kasb-hunar dasturlarini amalgam oshirishda o'quvchilarning tanlangan kasbga muvofiq o'qishni ta'limning navbatdagi bosqichlarida davom ettirish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanish uchun zarur va yetarlicha bo'lgan bilimlari va kasb tayyorgarligi darajasini chuqurlashtirish talab etiladi. Ta'limning mazmuni, ta'lim jarayonini tashkil etish (o'qish muddati, o'quv jarayoni jadval) Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan kelishilgan holda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan tasdiqlangan davlat ta'lim standartlari asosida ishlab chiqiladigan maxsus o'quv rejalari va dasturlari bilan belgilanadi.

Ta'lim jarayoni kasbiy va amaliy ko'nikmalar bilan birga o'quvchilar shaxsning shakllanishiga, ularning ijtimoiy moslashuviga va jamiyatga uyg'unlashuviga

ko'maklashadi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni tanlagan kasblari bo'yicha o'qish muddati o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining tegishli mutaxassisliklari va kasblari bo'yicha imkoniyatlari cheklangan shaxslar o'qishi uchun zarur va yetarli o'quv yuklamasining umumiy hajmi hisobga olingan holda belgilanadi. Bunda tanlangan kasblarning soni va murakkabligi e'tiborga olinadi. O'quvchilarni kollejga qabul qilish ularning o'qish yo'nalishlarini ixtiyoriy tanlashi hisobga olingan holda umumiy o'rta ta'lim negizida amalgam oshiriladi. O'qishga qabul qilishda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun mutaxassisliklari va kasblar ro'yxatiga muvofiq tibbiy tavsiyalar hisobga olinadi. Turli darajadagi aqli zaif shaxslar uchun tavsiya etiladigan kasblar. Kasallik turi bo'yicha nogironlik:

Oligofreniya. Oligofreniya tashxisi qo'yilgan shaxslarga-yuqori harorat va balandlikdagi ishlar, har qanday xavf-xatar bilan bog'liq ishlarda ishlash tavsiya etilmaydi. Ruhiiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bitiruvchilar uchun mutaxassislik kodi, mutaxassislik va kasblar turi. Mexanik yig'ish ishlari. Mexanik yig'ish ishlari mexanigi. Kesish asboblari charhlovchisi. Yog'ochga ishlov berish va mebel' ishlab chiqarish. Yog'ochga ishlov berish va mebel' ishlab chiqarish ustasi, mebellarni yig'uvchi, mebellarni qoplovchi-pardozlovchi. Matbaa ishlab chiqarish jihozlari va texnologiyasi. Fal'slash, qotirma, tikuv qo'shma va kesish agregatlari texnigi, broshyuralar-muqovalsh ishlab chiqarish operatori. Matbaa mashinalari va jihozlarini ishlatish. Matbaa mashinalari mexanigi, ta'mirlovchi –chilangar. Bosish jarayoni texnologiyasi. Ofset bosma bosuvchi, Yuqori bosma bosuvchi. Terish texnologiyasi va matn qoliplarini tayyorlash. Bosma qoliplar tayyorlash texnologiyasi, matbaada kom'yuterda terish operator-dizayneri. Tikuvchilik ishlab chiqarish. Keng turdagi kiyimlar tikuvchisi. Poyafzal va charm galantereya ishlab chiqarish. Poyafzal va charmgalantereya buyumlari tikuvchisi. Ortopedik oyoq-kiyimlarini tikish va ta'mirlash poyafzalchisi. Qurilish ishlari. Umum qurilish ishlari ustasi, Po'lat vat emirbeton konstruksiyalarini o'rtanish ustasi. Qurilish –pardozlash ishlari. Qurilish-pardozlash ishlari ustasi. Qoplash, koshinkorlik, mozaikalash va marmarlash ishlari ustasi. Duradgorlik va parket ishlari. Duradgorlik ishlari ustasi. Parket ishlari ustasi. Bog'-park qurilishi. Bog'-park qurilishini tashkil etuvchi. Ko'kalamzorlashtiruvchi. Gulchi, o'simliklarni himoya qilish laboranti. Suv ta'miloti va kanalizasiya tizimlarini montaj qilish va ta'mirlash. Suv ta'minoti va kanalizasiya tizimlarini montaj qilish va ta'mirlash texnigi. Umumiy ovqatlanishni tashkil etish. Umumiy ovqatlanish texnologiyasi. Milliy taomlar oshpazi. Chet el taomlari oshpazi. Qandolatchi. Nonvoy. Fotografiya. Retushyor. Foto-labarant. Bu masalalarda mintaqa xususiyatlarini, milliy an'analarini va tarixiy tajribasini xisobga olish lozim bo'ladi. Shuningdek, fan –texnika taraqqiyotining hozirgi talablari asosida yoshlarga mehnat tarbiyasi berish va ularni turli kasblarni egallashga yo'naltirish shakl va metodlarni takomillashning yangi yo'llarini qidirish lozim. Sharq mutafakkirlari ta'limotida o'g'il va qizlarga ta'lim



tarbiya berish, ularga kasb-hunar o'rgatish g'oyasi muhim o'rin egallaydi, buni biz o'zbek xalq maqollaridan bilib olishimiz mumkin.

Maqollarda bilim va kasb korliklarning inson hayotidagi o'rniga yuksak baho berib, farzandlarining barkamol bo'lib o'lg'ayishini orzu qilganliklarini ko'rishimiz mumkin. O'quvchilarning kasb tanlashi o'qiga xos murakkab va qat'iy ketma ketlikda jarayon bo'lib bu, jarayonga jiddiy yondashilsa ko'proq anglashilmovchilikni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari kasb tanlashda barcha tanlovlardagi singari vaqt o'tib borishi bilan afzallikning o'zgarib borishi masalasi turadi. Ya'ni avval afzal deb topilgan tanlov vaqt o'tishi va ijtimoiy rivojlanishnatijasida o'zining qimmatini o'zgartirib boradi. Har bir insonning yoshi ulg'ayishi sari uning qiziqishlari o'zgarib boradi, natijada kasbga nisbatan tanlov ham vaqt o'tgan sari o'zgarishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish xalq xo'jaligining barcha sohalarida mamlakatimiz rivojlanishini ta'minlovchi yetuk kadrlarni tayyorlash har bir pedagogning oldida turgan dolzarb vazifadir.

Yordamchi maktablardagi mehnat nuqsonli bolalarni kelajakda ijtimoiy moslashuvda mehnatning o'rni beqiyosdir. Maxsus maktablarda mehnat alohida tashkil etilishi lozim. Chunki mehnat faoliyatida nuqsonli bolalardagi psixofizik yetishmovchiliklar ko'proq tuzatiladi va bartaraf etiladi. Mehnat jarayonlari yordamchi maktab bolalarini atroflicha rivojlantirish va hayotga, mehnatga tayyorlashning asosidir. Bu maktablardagi mehnat tarbiyasining vazifalari o'quvchilarni mehnat malakasi va ko'nikmalari bilan qurollantirish ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishiga yordam beruvchi omil hisoblanadi nuqsonli bolalarni tarbiyalshda ijtimoiy mehnat, mehnat darsini ahamiyati beqiyosdir. Ijtimoiy foydali mehnatga o'z-o'ziga xizmat qilish, turli kechalarni tashkil etish va o'tkazish, ko'rgazmalar, tanlovlar, maktabni obodonlashtirish ishlari, hosilni yig'ishtirib olish, to'garak ishlari va boshqa qator mehnat turlari kiradi. Bu mehnat turlari mazmunining turli –tumanligi nuqsonli bolalarning keng hajmda bilim egallashlariga imkoniyat yaratadi. Maxsus maktablarda mehnat tarbiyasi ishlab chiqarish mehnatlarida samarali natija beradi. Mehnat orqali bolalar turli fanlarga nazariy bilimlar olish bilan birga, ularda shaxsiy sifatlar shakllanib borishi asosida mehnat davolash vazifalarini ham o'taydi. Barcha mehnat jarayonidagi hattiharakatlar oqibatida fiziologik jarayonlar yaxshilanib boradi, ruxiyatga ijobiy ta'sir etadi. Ularning ijobiy hislatlari shakllanadi. Ularda irodaviy sifatlar namoyon bo'la boshlaydi. Ular faoliyatiga tashkiliy ma'no beradi, asosiysi, mehnat tufayli aqli zaif bolalar o'z kasalliklari oid fikrlardan chalg'iydilar. Mehnat orqali bolalarni kelajakda jamiyat uchun xavfli inson bo'lib shakllanmasligi uchun immunitet shakllanadi. Bolalar kelajakda ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topa olishi, o'z-o'zini boqa olishi, mehnat darslari, mehnat tarbiyasi orqali kasbga yo'naltirishda amalgam oshiriladi. Bu bir omil hisoblanadi. Yordamchi maktablarda o'quv qo'llanmalarini va maktab jihozlarini ta'mirlash, sinfda gul o'stirish, "jonli burchak"da jonivorlarni parvarish qilish, chiqindi qog'oz va metal to'plash, maktab yer

maydonidagi ishlar, o'quvchilar va tarbiyalanuvchilar uchun mehnat va to'garaklarda o'yinchoqlar yasash, sinfda, maktabda, oshxonada navbatchilik qilish ishlari qilishi kiradi. 11 Ana shunday topshiriqlarni bajarish asosida o'quvchilarda axloqiy tushunchalar mustahkamlanadi, ular jamoatchilik faoliyatiga qiziqqa boshlaydilar. Ular bunday mehnat natijasida odat, ihtiyoj shakllanadi, maqsad sari intilish rivojlanib boradi. Berilgan barcha topshiriqlar bolalarni xususiyatiga, nuqsoniga mos bo'lib ma'lum vaqt beriladi. Aqli zaif bolalarni amalda ishlatib tarbiyalash muhim pedagogic korreksion masala hisoblanadi. Bolalarni mehnatga tarbiyalash jarayonida: - bola mehnatga qanchalik jalb etilsa, uning mehnat tarbiyasi shunchalik muvaffaqiyatli o'tadi. - Bolalarni mehnati ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi kerak. - Charchoq, horish hissini to'g'ridagigan sevimli mehnatgina bolalarga quvonch bag'ishlaydi. Jismoniy va aqliy kuch talab etmaydigan yengil mehnat samara bermaydi. - Kattalat bolaning mehnatini odob doirasida nazorat qilish, boladagi o'z kuch g'ayratiga ishonchini qo'llab-quvvatlashi kerak. Agar yordamchi maktab o'quvchisi topshiriqni bajarganidan keyin o'z muvaffaqiyatidan quvonsa, qilgan ishi bilan faxrlansa, haqiqiy inson sifatida kamol topadi, baxtiyor bo'ladi. - Yordamchi maktab o'quvchilarini mehnati dam olish bilan almashtirib borishi kerak. Mehnat turlarini navbat bilan bajarilishi ham charchoqni bosadi. - Har qanday mehnat topshirig'I foydali, imkon boricha natijali bo'lishi kerak. Bu natija jamoat uchun va o'zi uchun qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, mehnatning tarbiyaviy ta'siri shuncha kuchli bo'ladi. Sharq mutafakkirlari, pedagoglar xo'ja ko'rsinga qilinadigan yoki bolaning vaqtini oladigan qat'iy e'tiroz bildirganlar. - Unumli mehnatda bolaning shaxsiy, moddiy manfaatdorligini rad etmasligi kerak.

Aqli zaif bolalarni ongli kasb tanlashda maktab va oilaviy muhitning ijtimoiy – psixologik ta'siri Ishonchli manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra “Avesto”ga bizning vatanimizda asos solingan. Bu dalil ta'lim-tarbiya faoliyatimiz va aqidalarimiz qadimiyligidan dalolat beradi. Bolalar yoshligida har bir kasbga qiziquvchan bo'lishadi, lekin ularning ma'lum bir kasbga layoqatdan aniqlashdan ko'zlangan maqsad, bolalarga ularning qiziqish va qobiliyatlariga muvofiq mehnat faoliyatining turiga doir bilim va ko'nikmalarini, malakalarini tarkib toptirishdir. Tajribalarning ko'rsatishicha faqat shaxsiy manfaatdorligi orqali bola to'la kuchi bilan ishlashi o'rganishi, jamoaga singib ketishi va shu tarzda to'la qimmatli mehnatkash darajasiga ko'tarilib, shu asosda burch 12 va sharafga binoan ishlash imkoniyatini beradigan yuksak ong hosil qilish mumkin. - Mehnat faoliyatini tashkil qilish ahloqiy tarbiya, intizom bilan bog'lanishi lizim. Zero insonning kundalik turmush tarzi mehnat va faoliyati bilan bog'liqdir. Shi sababli mehnat butun moddiy va ma'naviy boylklarning ijtimoiy taraqqiyoti mezodidir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama shakllanish vositasi, uning shaxs sifatida ulg'ayishi omili hamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonida bola o'z aqlini, irodasini hissiyotini xarakterini rivojlantirishi mumkin.



1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: 2014.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.: - Toshkent: "O'zbekiston", 2017, 488 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatinibirgalikdabarro etamiz.-Toshkent: "O'zbekiston", 2016,56b. "Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан. :-Ташкент: "Узбекистан", 2016, 56с.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi.: -Toshkent, "O'zbekiston", 2017, 48b.
5. Мирзиёев Ш.М. Обеспечение верховенства закона и интересов человека - гарантия развития страны и благополучия народа.: -Ташкент; "Узбекистан", 2017, 48с.
6. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.: - Toshkent; "O'zbekiston", 2017, 104b.
7. Мирзиёев Ш.М. Критический анализ, жесткая дисциплина и персональная ответственность должны стать повседневной нормой в деятельности каждого руководителя. :-Ташкент; "Узбекистан",2017, 104с
8. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
9. Karimov I. A Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.: -T.: 1998.